

# "Maxam-Chirchiq" Ajda xotin-qizlar bilan muloqot bo'lib o'tdi

// 27.09.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maxam-chirchiq-ajda-xotin-qizlar-bilan-muloqot-bo-lib-o-tdi>



Bugun "Maxam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyatiga O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Ozoda Parpiboyeva tashrif buyurdi.

Korxonada majlislar zalida jamiyatda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar bilan muloqot bo'lib o'tdi.

Unda "Maxam-Chirchiq" AJ boshqaruvi raisi X.Saydaxmedov, "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi maslahatchisi S.Abduraxmanova hamda korxonada xotin-qizlari ishtirok etishdi.

Tadbirida gender tenglikni ta'minlash, ayollarning jamiyat va davlat hayotidagi o'rnini mustahkamlash muhim masala ekanligi, shu boisdan yurtimizda oila va xotin-qizlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab xayrli tashabbuslar amalga oshirilayotganligi alohida ta'kidlandi.

Samimiy ruhda o'tgan muloqot jarayonida xotin-qizlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishdi.





"Maxam-Chirchiq" AJ Matbuot xizmati